

REFERENCES

1. John Flowerdew and Matthew Peacock. Research Perspectives on English for Academic Purposes. M., City University of Hong Kong, 2001.
2. Brown Douglas. Teaching by Principle. M., Pearson Education, 2001.
3. Harmer Jeremy. How to Teach English. M., Edinburg. Longman, 2007

QIYOSIY-TARIXIY TILSHUNOSLIKNING TILLAR O‘RGANISHDAGI AHAMIYATI

Yernazarov Faxriddin,
katta o‘qituvchi,
Imom Buxoriy nomidagi
Toshkent islom instituti, Toshkent.

Annotatsiya. Bu tezisdagi qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning tillar o‘rganishdagi ahamiyati, dunyo tillarining turli xilligi, ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlarini qiyoslab o‘rganish yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Tillar, tilshunoslik, o‘rganmoq, tarixiy va qiyosiy.

“Til o‘rganish kishilik jamiyatida bag‘oyat muhim sohalardan hisoblanadi”.

[1] (J.Jalolov. Chet til o‘qitish metodikasi.–T.: O‘qituvchi. 1996.)

Jahondagi hamma tillarni tekshirish, o‘rganish XIII-asrdan boshlandi. XIX-asrning birinchi yarmida tillarni bir-biriga solishtirib tekshirish keng tus oldi. Mustamlaka mamlakatlarning tabiiy boyliklarini talash, mehnatkash ommani og‘ir mehnatda ishlatish hisobiga boy bo‘lishni maqsad qilib olgan hukmron sinfi uzoq qit‘alardagi xalqlarning tillarini tekshirib, bu tillarni Yevropadagi tillar bilan taqqoslab o‘rganishga kirishdi. Bu sohada hind tilini solishtirib tekshirish katta rol o‘ynadi. Natijada bu davrda tilshunoslar tomonidan “Hind-yevropa tilshunosligi” deb nomlangan ta’limot paydo bo‘ldi.

“XI-XII-asrlar Sharq tilshunosligida (M.Koshg‘ariy va M.Zamaxshariy lug‘atlarida qarindosh va noqarindosh tillar lug‘aviy birliklarning chog‘ishtirilishi) mavjud bo‘lgan. Chog‘ishtirma tilshunoslik XVII-XVIII- asrlarda Yevropadagi va dunyoning boshqa mintaqalaridagi turli tuman qarindosh tillar bo‘yicha tadqiqot

materiallarining to'plana borishi bilan yanada rivojlanadi va qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning paydo bo'lishiga zamin hozirlaydi". [2] (uzpedia.uz)

Fan va texnika rivojlanib borishi, ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash va idrok etish hamda internetdan foydalanish natijasida tilshunoslik fanining yangidan yangi tarmoqlari yuzaga keldi. Turli til tizimlarini o'rganishda tilshunoslar hamma tillarning o'ziga xos belgilariga qarab, guruhlarga ajratdilar. Bu belgilarni taqqoslashda universal usulga ehtiyoj sezildi. Universal usul ishlab chiqildi va u til universaliyasi deb ataldi. Til universiyalisi structural lingvistikaning amaliy mahsuli sifatida yuzaga keldi. Barcha til tizimlari uchun mushtarak bo'lgan belgilarni ifodalashdagi muvofiqlik va nomuvofiqlikni o'rganuvchi uchun bu usul qiyosiy tipologiya faniga taaluqli bo'ldi. Qiyosiy grammatika qiyosiy tipologiyaning bir tarmog'i bo'lib, u grammatik bosqich birliklarini tekshiradi, umumlashtiradi va taqqoslash yo'li bilan grammatik tizim birliklarining moslashuv qonuniyatlarini shakllantiradi, grammatik kategoriyalarning ifodalanishidagi mazmun va ifoda rejaları birliklarining tillararo aloqasini o'rganadi.

Tarixiy-qiyosiy metod qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka asoslanadigan birlamchi metod hisoblanadi. Bu metod dunyo tillarining rang-barangligi, ular o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarini qiyoslash asnosida shakllandi. [3] (Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-T., 2007)

"Qiyosiy-tarixiy metod yoki qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tillarni taqqoslab o'rganuvchi klassik fan bo'lib, bir-biriga taqqoslanadigan barcha fanlarning asosi hisoblanadi. Bu metod ham tillar sistemalarini qiyoslash bilan shug'ullanganligi uchun uni tipologiyaga kiritiladi. Qiyosiy-tarixiy metod ma'lum darajada farq qilishiga qaramay, hozirgi paytda bu metod qiyosiy tipoloiya fanining yutuqlariga asoslanib qayta o'rganilmoqda va konkretlashmoqda. Qiyosiy-tarixiy metod komparativistika nomi bilan ham yuritildi. Komparativistika tillarning konkret birlikliklari tovush, so'z, morfema, grammatik formalarining tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zgarishi, qardoshlik munosabatlari va boshqalarni asosan genetik metod yordamida tekshiradi. Bu metod faqat qardosh tillar sistemalarinigina talqin

etadi”.[4] (Bo‘ronov J. Ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy grammatikasi.-T.: O‘qituvchi. 1973.)

Turli til tizimlarini qiyosiy o‘rganishda ikki xil metod bor. Ular: 1.umumiy tipologik metod, 2.tarixiy-qiyosiy metod. Umumiy tipologik metod lingvistik tipologiya fanini o‘rgansa, tarixiy-qiyosiy metod (komparativistika) fanini o‘rganadi. Tipologiya so‘zi “tipos” -tip, tur , “logiya”- shakl, belgi va “logos” - so‘z, fan so‘zlari qo‘shilishidan yasalgan. Tipologiya predmet yoki hodisalarning tasniflash jaroyoni bilan bog‘liqligiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: a) lingvistik tipologiya, b) nolingvistik tipologiya. Lingvistik tipologiya tillar tizimlarini bir-biri bilan qiyoslash, til qonunlari va kategoriyalarini umumlashtirishni, ularni tipologik klassifiatsiyalashni o‘rganadi.Nolingvistik tipologiya lingvistikadan boshqa fanlarda ishlatiladi. Nolingvistik tipologiya o‘lchami juda keng bo‘lib, tarix, botanika, geologiya, jamiyatshunoslik, adabiyot kabi fanlarda turli predmet, hodisa va voqealarning o‘xshashliklari va farqiga ko‘ra klassifikatsiyasini o‘rganadi. Umumiy tipoloiya tillar tizimlarini umumiy kategoriyalar asosida o‘rganadi.

Lingvistik tadqiqot usuli bo‘lgan qiyosiy-tarixiy metod tillarning fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini bir-biriga solishtirib tekshirish, ular orasidagi o‘xshashlik va farqlarni anglashga yordam beradi. “Biror chet tilni o‘rganishda o‘quvchilarning ona tilisi etalon til vazifasini o‘tashi mumkin”. [5] (Bo‘ronov J. Ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy grammatikasi.-T. O‘qituvchi, 1973.)

Turli qardosh va qardosh bo‘lmagan til tizimlarini bir-biri bilan taqqoslab o‘rganish keying yillarda juda keng avj olmoqda. Taqqoslash uslubi minimal ikki tilni va maksimal ko‘p tillarni bir-biriga solishtirish yoli bilan amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning tillar o‘rganishdagi ahamiyati katta. U jahon tillarining turli xilligi, ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlarini qiyoslab o‘rganuvchi, bir-biri bilan taqqoslana olishi sababidan barcha fanlarning asosi hisoblanadi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik til tizimining ayrim elementlarini solishtirib, mazmun va ifoda rejalaridagi qardoshlik aloqalarini, til

tizimlari elementlarining rivojlanishini hamda tillarning qardoshlik munosabatlari asosida o'rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bo'ronov J. Ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasi.–T.:O'qituvchi, 1973. 287 bet.
2. Jamol Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi. –T.: O'qituvchi, 1996. 341 bet.
3. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. –T., 2007. 177 bet.
4. uzpedia.uz,

THE ROLE OF COMPARATIVE LINGUISTICS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Yormatova Aziza Voxidillayevna

Uzbekistan state world languages university

Teacher

Annotation. *This article examines the significance of comparative linguistics in foreign language instruction. It explores how insights from comparative linguistics can inform language teaching methodologies, aiding in the explanation of linguistic structures and facilitating language acquisition. By drawing parallels between the target language and learners' native languages or other languages they are proficient in, educators can enhance comprehension and proficiency.*

Keywords. *Comparative linguistics, language instruction, foreign languages, language acquisition, linguistic structures, pedagogical approaches, language learning materials.*

In the rich tapestry of human communication, languages stand as the threads that weave cultures together. In the modern globalized world, the ability to speak multiple languages is not just a skill; it's a gateway to understanding diverse perspectives, fostering connections, and opening doors to new opportunities. Yet, the journey to mastering a foreign language can often be arduous, requiring dedication, practice, and effective pedagogical strategies. Among these strategies,